

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

HAM TA’LIM, HAM TARBIYA BERUVCHI SHE’RLAR...

Laylo Sharipova,
*BuxDU professori,
filologiya fanlari doktori*

***Annotatsiya.** O‘zbek bolalar she’riyatining obrazlar olami boy, mavzular ko‘lami keng. Bolalarga atalgan she’rlar ham ta’lim, ham tarbiya berishi lozim. Zamonaviy bolalar she’riyatida o‘simliklar obrazi orqali inson hayotiga xoslik aks ettirilishi bilan birga tabiat haqidagi ilmiy bilimlar berilishi ham mumkin. Maqolada shu haqida fikr boradi.*

***Kalit so‘zlar:** she’r, barmoq she’riy tizimi, vazn, janr, bolalar she’riyati, ritm stilizatsiyasi, folklor, tez aytish.*

XX asrga kelib o‘zbek shoirlari bolalar uchun alohida adabiyot yaratilishi kerakligini zarurat deb bildilar. Buning uchun bolalarning yosh xususiyatlari, til imkoniyatlari, tasavvur olami inobatga olinishi lozim edi. Kattalar uchun ijod qilayotgan G‘afur Gulom, Hamid Olimjon singari yetuk shoirlar bolalarbop asarlar ham yaratgan bo‘lsalar, Sulton Jo‘ra, Shukur Sa’dulla, Ilyos Muslim singari bolalar shoirlari ijod qilib, bolalar adabiyotini yuzaga keltirishda munosib hissa qo‘shdilar.

Bolalar she’riyati taraqqiy topib borar ekan, folklordan ertak, alla, topishmoq, tez aytish singari janrlarni o‘zlashtirib, adabiy ertak, adabiy alla, adabiy topishmoq, adabiy tez aytish janrlarini yuzaga ketirdi. Dastlabki she’riy asarlar barmoq she’riy tizimi vaznlarida yaratilgan bo‘lsa, hozirgacha ham shu vaznlar yetakchiligi davom etmoqda, bu o‘rinlidir. Erkin she’riy tizimda yozilgan she’rlar barmoq bilan sanarli bo‘lgani kabi aruz she’riy tizimi vaznlarida she’rlar yozish keng tus olmadi. Bolalarga aruzda dastlab Hamza Hakimzoda Niyoziy she’r bitgan bo‘lsa, bu jarayon XX asrning 20-yillaridan 90-yillarigacha to‘xtab qoldi. Anvar Obidjonning “Bulbul cho‘pchaklari” she’riy turkumini istisno qilganda aruz she’riy tizimi vaznlarida bolalarbop she’rlar yozilmadi.

Masalaning yana bir jihati bor: folklorda, mumtoz she’riyatimizda hayvonlar, qushlar, o‘simliklar va shu kabilar yordamida majoziy, ramziy obraz yaratilgan bo‘lsa, bolalar adabiyotida ham kichik yoshdagilar, o‘smir hamda o‘spirinlar uchun yozilgan asarlarda ushbi obrazlardan foydalanildi. Ayniqsa, istiqloq yillarida millatning yosh avlodi tasavvurini boyitish, tafakkurini o‘stirish uchun tabiat bilan tanishtirishda ham she’riyat vosita bo‘la boshladi. Bu borada T.Adashboyev, Anvar Obidjon, K.Turdiyeva, Dilshod Rajab she’riyati o‘ziga xoslik kasb etdi. Bu jarayonni O.Safarov, R.Barakayev, Q.Qahramonov, Z.Ibrohimova, K.Turdiyeva, Dilshod Rajab, B.Jamilova singari bolalar adabiyotshunoslari tahlil va talqin qilishdi. Professor O.Safarov esa nafaqat tahlil va talqin, balki targ‘ib ham qildi.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Ustoz Oxunjon Safarov haqiqiy olim, beqiyos ustoz edilar – buni ko‘plar bilardi. Ammo she‘r yozishlarini – “Bolaligim qolgan ko‘chalar” nomli saylanmalari “Muharrir” nashriyotida chop bo‘lgunicha – hamma ham bilavermasdi. Biz kitoblari chop bo‘lganidan keyin yaratilgan, ya‘ni to‘plamga kirmay qolgan turkum she‘rlarini tahlil qilishga intildik...

Ustoz bolalarga bag‘ishlangan she‘r ham ta‘lim, ham tarbiya berishi lozim deb hisoblardilar. O‘zlari yaratgan bolalarbop she‘rlar shunday fazilatga ega edi. “Poliz sayli gashti” she‘rlarini o‘qib, o‘quvchi qovunning pishgan yoki xomligini bilish uchun qovunni chertib ko‘rish kerakligini, pishgan qovunning ichidan o‘ziga xos ovoz chiqishini, pishgan qovun chirt etib dum berishini, qovunni nahorda yeyish ma‘qulligini angelaydi, ayni damda, she‘r ohangidan dili yayraydi. Shoir paykal boshida qovun yeyilsa, hosil barakali bo‘lishini ta‘kidlab, qadriyatlarimizdan birini targ‘ib qilargan ekan, she‘riga xulosa yasaydi:

Polizga baraka berarmish Alloh
Qovunni paykalning boshida yesang.
Qovunchi bobo ham yayrar sururdan
Minnatdor dil bilan rahmatlar desang¹.

“Qovun sayliga marhabo” she‘rida shoir bolalarni qovunning uyadoshlari bilan tanishtiradi: qoraqandiy, sheroziy, shakarpalak, bosvoldi, bekszodi, gulobi, temirtirnoq, kampirchopon, barginoy, amiri. Xuddi shunday “Uzumzorni kezkanda” she‘rida shoir uzum navlari bilan she‘rxonni oshno etadi: toyfi, shibirg‘oni, hasanak, husayni, behishti, kelinbarmoq. Uzum navlarining vatani haqida ham badiiy yo‘l bilan ma‘lumot bergan she‘r ta‘limiy jihatdan juda ahamiyatlidir. Zero, qovun, uzum navlari kamayib borayotgan, ularning nomlarini yosh avlod chuqur bilmayotgan pallada bunday she‘rning yaralishi aslida ehtiyojdir. O‘quvchi o‘zi bilgan-bilmagan qovun, uzum navlari bilan tanishar ekan, uyadosh so‘zlarni zerikmay o‘rganadi. Negaki, she‘rdagi o‘ynoqi ohang, yumor ruhi she‘rni yanada jozibador qilgan:

Manov qovun sheroziydir,
Kimki yesa, zap rozidir.
Manovisi – shakarpalak,
Izlab uni jonim halak.
Manov qovun bosvoldimi?
Til yorishda bahs soldimi?

Shoirning “Qovun sayliga marhabo”, “Taruuz”, “Handalak” kabi she‘rlari masnaviy shaklida qofiyalangan. Bu hol she‘r ohangini yanada jozibador qiladi,

¹ Professor O.Safarov arxividan (Tahlilga tortilgan barcha she‘rlar nashr qilinmagan).

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

kichkintoy she’rxon she’rni tezroq yodlashiga ko‘maklashadi. Shoir deyarli har bir she’rida tavze’ – tovush takroridan unumli foydalanadi. Aslida bu hol folklorga xos badiiy san’at jozibasining ustoz ruhiyatlariga singib ketganiga dalildir:

Yer shariday yum-yumaloq,
yumalar tarvuz,
Poliz aro dum-dumaloq,
dumalar tarvuz.
Polizni-chi savlatidan
to‘ldirar tarvuz,
Ko‘rgan ko‘zga imlab derki:
– Qara, meni uz!

Kichkintoy she’rxon tarvuz ko‘magida Yer shakli haqidagi dastlabki tasavvurga ega bo‘ladi. Olim shoir bolalarga yayrab dars beradi, faqat bu darslar vaznga solingan. “Oshqovog‘im – osh qovoq”, “Ishtaha ochar bodring”, “Ekinlarning sinori” shunday she’rlardan. “Ekinlarning sinori” nima? She’rning nomiyoq bolalar diqqatini tortadi. Pomidor Italiyadan kelganini, “patidjon” nomi bizning yurtda avval “pamildori”, keyinroq pomidor deyilganini aytar ekan, shoir pomidor serobligini “hosil tugasan g‘uj-g‘uj”, “ekinlarning tekini” deb izohlaydi:

Quyosh nurin simirib
Ranging qizil tortganmi?
Quyosh taftin shimirib
Tarangliging ortganmi?

O.Safarov bolalar adabiyoti, folklor, jumladan, bolalar folklori tadqiqotchisi bo‘lganliklari sababli she’rlarida ham ilmlarining aksi-ifodasi bor. “Bodiring diring-diring, Jo‘rajon, qani yuring”. Bolalar qo‘shig‘iga xos ohang bilan cheklanganlarida ustozning she’rlari o‘qimishli bo‘lmay qolardi. She’rlarida ritm stilizatsiyasi bilan birga bolalarga saboq va ruhiy tarbiya ham bor. “Oshqovog‘im – osh qovoq” she’rlarida oshqovoqning “po‘sti qalin tosh qovoq”, “g‘umbarak pachoq qovoq”, “chinoq qovoq”, “uzun bo‘yli qovoq”, “serrez, serbardosh qovoq” ekanligini ma’lum qiladilar. O‘zbek bolalar she’riyatida qovoq haqidagi she’rlar sanoqli. Umuman, ustozning she’rlari mavzu jihatidagina emas, mazmuniga ko‘ra ham o‘ziga xos. O‘quvchi she’rni o‘qib, oshqovoq me’dani tozalashi, marizni quvishi, undan sharbat qilinishini, danagini chaqib yeyish mumkinligini o‘rganadi.

Tandiriy qovoq bichak,
Yesangiz yayrar ichak.
Og‘izda erib ketgay,
Bamisli bolli chak-chak.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Qovoq somsa, non qovoq,
Oshqozonga jon qovoq.
Qovoq do‘lma qaylasi
Xushxo‘rki chunon, qovoq.
Yeng **shinni komasini,**
Yeng **qovoq baragini** –
So‘ng qayda bo‘lar deya
Izlarsiz daragini.

O‘nlab she‘rlarida uchragani misol bu she‘rlarida ham ustoz o‘zbek tiliga xos, ammo kam qo‘llanadigan so‘zlarni o‘z o‘rnida mahorat bilan qo‘llaydilar. Oshqovoqdan qilinadigan pishiriq-taomlarni bolalar tiliga xos va mos qilib sanaydilar. “Tut va turup” she‘rlari tez aytish ta‘sirida yaratilgan. She‘rning birinchi va oxirgi bandi tez aytishga hamohang:

Bir tup tutning tomirini
Turup turar emish turtib.
Bir tup turup tomirini
Tut ham turtar emish bo‘rtib.

Ammo ustoz ta‘sir doirasida qolib ketmaganlar. She‘rning qolgan bandlari tut va turup haqidagi ajoyib satrlardan iborat, she‘rning ba‘zi bandlari o‘quvchi bilimni tekshiradi:

Qani ayt-chi, tut shirinmi
Yoxud turup, ayt sirini?
Qay birini yayrab yeysan,
Palov bilan qay birini?

Qay biri pishar bahorda
Kuzda pishar qaysi biri?
Qay biri erir og‘izda,
Kertiladi qaysi biri?

Ustozning kichkintoylarga she‘riy saboqlari talaygina va ular takrorlanmas. “Qovun va sovun” she‘rida “Yozish va o‘qishda mashq darsi” ekanligi qayd qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi she‘rdan dars jarayonida foydalanishi mumkin:

- Qovun shirinmi, sovun?
- Qo... v...un.
- Sovun shirinmi, qovun?
- Qo...v...un.
- Endi “qovun”dan “Q”ni,

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Hamda “sovun”dan “S”ni
Olib tashla-da, o‘qi!
– O...vun!

O.Safarov ilmda hozirjavob edilar, she’rlarida ham shu hol akslangan. “Xol nima-yu, bol nima?” she’rlariga diqqat qiling. Bolalar qo‘shiq-lari ritmi qulog‘ingiz ostida jaranglayveradi. She’rning ahamiyatli jihati Xolboy bilan savol-javobda yaqqol ko‘rinadi. She’riy dialogda muallif Xolboydan xol, nol, bol, yol nimaligini so‘raydi. Bolaning javobida zukkolik va bolalarcha yumor bor:

– Xolmi, mana yuzimda,
Bolmi, mana so‘zimda.
Yol toychog‘im bo‘ynida,
Man onamning qo‘ynida, –
Deb yemagan ovqatin
Urar-da paqqos darhol,
So‘ng kosani ko‘rsatib
Derki: – Mana bo‘ldi nol’!

Biz ustozning sanoqli she’rlarini imkon qadar tahlil qildik. Kichkintoylarga atalgan sa’viyali she’rlar juda kamligini ustoz qayta-qayta ta’kidlardilar. Yuqorida biz tilga olgan she’rlari shu kemptiklikni to‘ldirish yo‘lidagi sa’y-harakat edi. Bu she’rlarni o‘zbek bolalar she’riyatining chiroyli namunalari deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipova L. F. Literary riddles //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 10. – S. 342-346.
2. Sharipova L. BOLALAR ADABIYOTINING NOZIKTA’B ZARSHUNOSI // Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 4. – S. 67-70.
3. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294